

GALEN, NOVAGALEN PREPARATLARINI TAYYORLASHDAGI GIGIYENIK TALABLAR

Saidova Sohibaxon Abrorjon qizi

Farg‘ona jamoat salomatligi instituti

Kommunal va mehnat gigiyena kafedrasi assisenti.

Sokhibakhon.saidova@mail.ru

A‘zamova Zinnura Azizbek qizi

Farmatsiya yo‘nalishi 7024-guruhi 1-bosqich talabasi.

zinnurazamova@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.13957080>

Annotatsiya. Galen preparatlari xom ashyodan, uni suv, spirt, efir yoki spirt bilan suv, efir bilan spirt aralashmalari vositasida ekstraksiya qilib olinadi. Bugungi kundagi galen novogalen preparatlarini o‘rganish, tayyor dori shakllarini o‘rganish, galen preparatlarini ishlab chiqarish va antibiotiklarni ishlab chiqarishni o‘rganish.

Kalit so‘zlar: Galen preparatlari, novogalen preparatlari, ekstraktlar, nastoykalar, xushbo‘y suv va spirtlar, sharbatlar, eritmalar, sovunli spirtlar, sovunkrezolli preparatlar, suv, spirt, antibiotik, dori, ballas modda, antibiotik ishlab chiqarishdagi gigiyenik qoidalari.

HYGIENIC REQUIREMENTS FOR PREPARATION OF PREPARATIONS GALEN, NOVAGALEN

Abstract. Galenic preparations are obtained from raw materials by extracting them with water, alcohol, ether or mixtures of water with alcohol, ether and alcohol. The study of modern galenic novogalenic preparations, the study of finished dosage forms, the production of herbal preparations and the study of the production of antibiotics.

Keywords: Hygienic rules for the production of herbal preparations, new galenic preparations, extracts, tinctures, aromatic waters and alcohols, juices, solutions, soap alcohols, soap-cresol preparations, water, alcohol, antibiotics, medicines, ballast substances, antibiotics.

ГИГИЕНИЧЕСКИЕ ТРЕБОВАНИЯ ПРИ ПРИГОТОВЛЕНИИ ПРЕПАРАТОВ ГАЛЕН, НОВАГАЛЕН

Аннотация. Препараты галена получают из сырья путем экстракции его водой, спиртом, эфиром или смесями воды со спиртом, эфиром и спиртом. Изучение современных галеновых новогаленовых препаратов, изучение готовых лекарственных форм, производство галеновых препаратов и изучение производства антибиотиков.

Ключевые слова: Гигиенические правила при производстве галеновых препаратов, новогаленовых препаратов, экстрактов, настоек, ароматических вод и спиртов, соков, растворов, мыльных спиртов, мыльно-крезоловых препаратов, воды, спирта, антибиотиков, лекарств, балластных веществ, антибиотиков.

Galen Klavdiy yoki Claudius Galenus o‘zdavrida qadimgi rim vrachi va tabiatshunosi bo‘lgan. Tibbiyot va falsafaga oid ko‘plab asarlar yozib qoldirgan. “Inson tanasining qismlari haqida”gi mumtoz asarida birinchi marta bir butun organizmni anatomikfiziologik jihatdan tasvirlab bergan. Galen shifobaxsh dorilar (qarang Galeneparatlari) deb ataluvchi dori-darmonlarni hayvon va o‘simlik xom ashyolaridan tayyorlagan.

Tabobat tarixida qon aylanish to‘g‘risidagi dastlabki g‘oyalarni yozib qoldirgan. Galen antik tibbiyot haqidagi tasavvurlarni yagona ta’limot tarzida umumlashtirib, XV—XVI-asrlarga qadar tabiatshunoslikning rivojlanishiga katta hissasini qo‘sghan. O‘zining nomi bilan ataluvchi sillogizmning to‘rtinchi figurasi hamda to‘rt mizoj haqidagi ta’limoti mashhur. Uning “Falsafa tarixya” asari olim vafotidan keyin taxminan 500-yilda tuzilgan bo‘lib, u tibbiyot talabalari uchun darslik hisoblangan. Hozirda talabalar ushbu asarlardan keng foydalanib kelishmoqda.

Galen preparatlari – o‘simliklar(ildizi, bargi, guli, po‘stlog‘i), minerallar va hayvonlar xom ashynosini qayta ishlab olinadigan dorilar. Rim vrachi **Klavdiy Galen** nomi bilan yuritiladi.

Faqat Galen davrida emas, balki hozir ham turli farmatsevtik usullar bilan tayyorlangan har xil dorilar galen preparatlari deb ataladi. Ko‘pchilik Galen preparatlari xom ashyodan, uni suv, spirt, efir yoki spirt bilan suv, efir bilan spirt aralashmalari vositasida ekstraksiya qilib olinadi.

Boshqalari esa, odatda, biror dorivor moddaning suv, spirt yoki yog‘dagi eritmasidan iboratdir. Galen preparatlarining asosiy guruhlari: ekstraktlar, nastoykalar, xushbo‘y suv va spirtlar, sharbatlar, eritmalar, sovunli spirtlar, sovunkrezolli preparatlar va hokazo. Zamonaviy shifobaxsh preparatlari (pepsin, tireoidin, aloy, qora smorodina ekstraktlari, allilsat va b.) galen preparatlari sirasiga kiradi.

Galen, novogalen preparatlaridan o‘simlik xom ashysosi – asosan, o‘simlik, dengiz suvo‘tlari, zamburug‘lar, lishayniklarning ishlov berilmagan, odatda quritilgan shakldagi, ammo ba‘zida sarxil shakldagi butun, ajratilgan va kesilgan bo‘laklaridir. O‘simlik xom ashysosidan olinadigan oraliq mahsulot – o‘simlik xom ashysiga ishlov berish yo‘li bilan, ekstraktsiyalash, haydash, siqish, fraktsiyalarga ajratish, tozalash, konsentratsiyalash yoki fermentatsiyalash yo‘li bilan olingen mahsulot hisoblanadi. Oraliq mahsulotlarga maydalangan yoki kukunga aylantirilgan o‘simlik xom ashysosi, nastoykalar, ekstraktlar, efir moylari va ishlov berish jarayonida ajralib chiqqan moddalar kiradi. O‘simliklarning maxsus ishlov berilmagan ayrim ekssudatları (ajratmaları) ham o‘simlik xom ashysiga kiradi. O‘simliklar, ekstraktlar, tindirmalar va boshqa mahsulotni saqlash uchun namlik, harorat va yoritilganlik bo‘yicha alohida sharoitlar talab etilishi mumkin, bunday sharoitlarni ta‘minlash va nazorat qilish zarur.

Texnologik jarayonda foydalanilayotgan uskunalar, filtrlovchi materiallar, mahsulotga ta‘sir qilishi mumkin bo‘lgan moddalarning ajralishi va absorbtсиyalanishiga yo‘l qo‘ymaslik uchun, ekstraktlar eritmalariga mos tushishi zarur. Namunalarni yig‘ishda, vaznni o‘lchashda, aralashtirishda chang hosil bo‘lishi bilan kechadigan o‘simlik xom ashysosi va oraliq mahsulotlar bilan olib boriladigan boshqa texnologik opertasiyalarda tozalikni saqlashga, shuningdek qarama-qarshi ifloslanishni oldini olishga qaratilgan alohida choralar ko‘rilishi lozim (changni yo‘qotish, maxsus xonalar ajratish va h.k.). Ingalyatsiyalar uchun aerozollarni tozalovchi klapanlar bilan ta‘minlangan va bosim ostida bo‘lgan ballonlarga to‘ldirib ishlab chiqarish o‘ziga xom xususiyatlarga ega bo‘lib, ularga alohida talablar qo‘yiladi. Ishlab chiqarish sharotlari mahsulotni mikroorganizmlar va zarrachalar bilan ifloslanishidan to‘liq himoya qilishi lozim. Klapanlar detallari sifati alohida ahamiyatga ega, suspenziyalarda esa ularning bir jinsliligi muhimdir.

Sifatni nazorat qilishni amalga oshirayotgan xodimlar yetkazib berilayotgan o‘simlik xom ashysosi aslliligini va aralashmalarning yo‘qligini, zamburug‘lar koloniylarining o‘sishini va parazitlar bilan ifloslanishning yo‘qligini tekshirish maqsadida sinovlarni olib borish uchun

maxsus tayyorgarlikka hamda o'simlik xom ashyosi, oraliq mahsulotlar va o'simlik xom ashyosidan olingan dori vositalari bilan ishlash tajribasiga ega bo'lish darkor.

Odatda, ishlab chiqarish va to'ldirishning ikkita usulidan foydalaniladi:

1) *ikki pog'onali usul (bosim ostida to'ldirish)*. Aktiv ingredient qaynash harorati yuqori nuqtaga ega propellantga kiritiladi, o'rama aktiv ingredient dozasi bilan to'ldiriladi, unga klapan va past qaynash nuqtasiga ega propellant kiydiriladi va klapan teshigi orqali kiritiladi. Aktiv ingredient xarorati bug'lanish hisobiga yo'qotishlarni oldini olish maqsadida past ushlab turiladi.

2) *bir pog'onali usul (sovutq to'ldirish)*. Aktiv imgradient propellantlar aralashmasiga yuqori bosim ostida yoki past haroratda yuboriladi. Keyin o'rama to'ldiriladi. Aerozollar uchun tozalovchi klapanlar farmatsevtika sanoatida qo'llaniladigan aksariyat qurilmalarga nisbatan ancha murakkabdir. Ulardagi texnik sharoitlar, namunalarni tanlab olish metodikalari hamda dozalovchi klapanlarni nazorat qilish bunday mahsulot sifatiga qo'yiladigan talablarga muvofiq bo'lishi kerak.

Ishlab chiqarish va to'ldirish imkonni boricha yopiq tizimlarda o'tkazilishi tavsiya etiladi.

Mahsulot yoki uning toza qismlari ochiq holatda saqlanadigan joylarda xonalar kamida D zonasiga mos kelishi kerak. Unga havo filtrlar orqali berilishi, xonaga kirish esa shlyuzlar orqali ta'minlanishi lozim.

REFERENCES

1. K. S. MUHAMMADJONOVA, SH. SH. TALIPOVA, SH. N. SHODMONOVA, SH. S. YO'L DOSHEVA. DORI TURLARI TEXNOLOGIYASI. TOSHKENT «VORIS NASHRIYOT» 2012.
2. Shavkat Abdullayev, Abdulhamid To'raboyev, Ma'rifikatoy O'rinoiboyeva, Nodirali Normaxamatov, Ravshan Zuhrobov. ANTIBIOTIKLAR "Namangan" nashriyoti 2015-yil.
3. VRXAYDAROV, A.D.TADJIEVA, A.M.USUBBAEV, SH.SH.XUSENOVA FARMATSEVTIK TEXNOLOGIYA. «IBN-SINO» TOSHKENT-2022.
4. S.M.Mahkamov, K.S.Mahmudjonova. TAYYOR DORI TURLARI TEXNOLOGIYASI. "Tib-kitob" nashriyoti TOSHKENT-2010
5. "Условия труда и охраны окружающей среды на стеклоизготовительных предприятиях". Tadqiqot uz. ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ – АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР мавзусидаги конференция материаллари 2020 №21 31октябрь Ст-33 [33]
6. Гигиеническая оценка и пути оптимизации водопользования сельского и городского населения в Республике Узбекистана области Ферганы. iScience Poland. MODERN SCIENTIFIC CHALLENGES AND TRENDS. Issue 4(38) Part 2 COLLECTION OF SCIENTIFIC WORKS OF THE INTERNATIONAL SCIENTIFIC CONFERENCE Ст 197-202 Warsaw 2021 [197-202]
7. Гигиеническая оценка и пути оптимизации водопользования сельского и городского населения в Республике Узбекистана. New Day in Medicine Новый День в Медицине TIBBIYOTDA YANGI KUN №2(34/2)2021 ст-73
8. ТВЕРДЫЕ БЫТОВЫЕ ОТХОДЫ (ТБО)- ГЛОБАЛЬНАЯ ПРОБЛЕМА МИРА. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences VOLUME 2 | ISSUE 6

ISSN 2181-1784 Scientific Journal Impact Factor SJIF 2022: 5.947 Advanced Sciences Index Factor ASI Factor = 1.7 Ct 327-334 [327-334]

9. TIBBIY TA'LIM AMALIYOTIDA INTEGRATSIYALANGAN TA'LIM ELEMENTLARINI QQ'LLASH. ISSN 2181-0443 DOI: 10.24411/2181- 0443 Научно-практический журнал re-health journal Издается ежеквартально с 2019 года Журнал зарегистрирован агентством информации и массовых коммуникаций при Администрации Президента Республики Узбекистан (№1297 от 10.06.2019 года). Журнал размещается в Научных электронных библиотеках (eLibrary.ru, Cyber Leninka, Google Scholar и UzSCI.uz). Ct 126-130 [126-130]
10. Hozirgi global ekologik muammolar va aholi yashaydigan hududlarni Qattiq mayishiy chiqindilardan holos etish choralar haqida. Бухарский государственный медицинский институт имени Абу Али Ибн Сино Научно – практический конференции с международным участием на тему: «Проблемы экологии и экологического образования» сборник тезисов 11-12.,